

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi

**60530500 – Geologiya (faoliyat soxasi bo‘yicha) bakalavriat ta’lim
yo‘nalishining malaka talablari**

Toshkent -2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

- Geologiya fanlari universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | bet |
|--|-----|
| 1. 60530500 - <i>Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi | 4 |
| 1.1. Qo'llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. 60530500 - <i>Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi | 4 |
| 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. 60530500 - <i>Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi | 4 |
| 1.2.1. 60530500 - <i>Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari..... | 4 |
| 1.2.2. 60530500 - <i>Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari | 4 |
| 1.2.3. 60530500 - <i>Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari | 5 |
| 1.2.4. 60530500 - <i>Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari | 5 |
| 2. 60530500 - <i>Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar | 6 |
| 2.1. Umumiy kompetensiyalar | 6 |
| 2.2. Kasbiy kompetensiyalar | 7 |
| 2.3 Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar | 7 |
| 2.3.1. Kvalifikatsiya | |
| 2.3.2. 60530500 - <i>Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni quyidagicha klassifikatsiyalash (tasniflash) mumkin..... | 8 |
| 2.3.3. 60530500 - <i>Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi | 8 |
| Bibliografik ma'lumotlar | 10 |
| Kelishuv varag'i | 11 |

1. 60530500 - Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60530500 - Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60530500 - Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60530500 - Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60530500 - Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60530500 - Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60530500 - Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) – fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'lik kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60530500 - Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda;

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- tabiiy resurslar va yer osti boyliklarini muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda;

- yer osti suvlari bo'yicha geologik tadqiqotlarni olib borish, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish sohasidagi tashkilotlarda;

- davlat boshqaruvi organlari, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni yechish.

60530500–*Geologiya (faoliyat sohasi bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, geologik ishlarini amalga oshirish va takomillashtirish bo'yicha bo'linmalar, korxonalar, tashkilotlar, vazirlik va idoralarga maslahat yordamini ko'rsatish, geologiyaning iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirish va bashorat qilish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, geologiya bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, geolaboratoriyalarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60530500 - *Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *Ilmiy-tadqiqot;*
- *Loyihaviy-konstruktorlik;*
- *Ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;*
- *Muhandislik-qidiruv va loyiha-konstruktorlik;*
- *Tashkiliy-boshqaruv.*

1.2.4. 60530500 - *Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60530500 - *Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Muhandislik-qidiruv va loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

- tozalash inshootlari, qurilmalarini qismlari va detallari va yig'ma birliklarining loyihasini tizimli yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish qobiliyatlari;
- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- tozalash qurilmalarini ishchi parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish qobiliyati;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- zamonaviy metodlar va vositalardan foydalanib faoliyat obyektlari holatini tahlil qilishda ishtirok etish;
- muhandislik ishi sohasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish, sinash va ulardan samarali foydalanishda ishtirok etish;
- samarasiz vaqt, mehnat va moddiy resurslarni kamaytirish, ratsional texnologik jarayonlarni tanlash bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazishda qatnashish;
- muhandislik ishi ta'lim sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- tahlil, hisobotlar va ilmiy publikatsiyalarni tuzish uchun ma'lumotlarni tayyorlash;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- muhandislik ishi jabhasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalardan samarali foydalanish;

- tizimlar, texnologik jarayonlar, ularning elementlari va texnologik hujjatlarni ishlab chiqishda ijrochilar jamoasi tarkibida ishtirok etish;
- obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarning ekspluatatsiya xavfsizligini ta'minlash;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;
- texnikaviy-iqtisodiy tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash;
- kasbiy etika qoidalariga rioya qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalanishini bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida:

- professional ta'lim ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

2. 60530500 - Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- geologiya-qidiruv ishlarining maqsadi va vazifalarini bilish va ular asosida foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka kilish jarayonlarni amalga oshirishi ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kasbiy faoliyatda konlarni texnik-iqtisodiy baholash, texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashni bilishi, iqtisodiyot va uning tarmoqlarining rivojlanish qonunlari va qonuniyatlarini mukammal bilishi va ulardan foydalanishni zamonaviy metodlarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi;
- bajarilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha faoliyatning ishlab chiqarish va texnologik masalalarini fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda kasbiy yechish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- inson sog'lig'ini va uning ishchanlik qobiliyatini saqlash bo'yicha hamda mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligi bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar *majburiy va tanlov* fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

1. Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyligi bo'yicha):

- Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.
- Alohida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari etarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

2. Tanlov fanlari.

➤ Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

➤ Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabanning tanlagan ta'lim yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko'p bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

O'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

A. Majburiy fanlar

Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabanning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabanning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Alohida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari etarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabanning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

B. Tanlov fanlar ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlar jamlamasiga uchtdan kam bo'lmagan o'rnini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlar majmuasining umumiy soni 10 tagacha bo'lishi mumkin.

C. Malakaviy amaliyot.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlar o'tkaziladi:

1-bosqichda malakaviy amaliyot – O'quv ekologik tanishuv amaliyoti iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, o'tilgan fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashga qaratiladi;

2, 3-bosqichlarda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonalar, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonalar, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

2.3.1. Kvalifikasiya: Geolog, neft va gaz geologi, neft va gaz geofizigi, minerolog, geofizik, gidrogeolog, petrograf, muhandis geolog, paleontolog, stratigraf, gemmolog, glatsiolog.

2.3.2. 60530500 – Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|--|---|-------------------|
| Majburiy fanlar | 4620 | 154 |
| Tanlov fanlar | 1530 | 51 |
| Malakaviy amaliyot | 600 | 20 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 450 | 15 |

2.3.3. 60530500 – Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Fan o'tiladigan semestr |
|-------------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|-------------------------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 4620 | 154 | |
| 1.01 | MATB114 | Matematika | 420 | 14 | 1,2,3 |
| 1.02 | UYTB104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | FALB205 | Falsafa | 120 | 4 | 4 |
| 1.04 | URTB104 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 2 |
| 1.05 | XJTB108 | Xorijiy til | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.06 | KEBB106 | Kimyoviy elementlar va ularning birikmalari | 180 | 6 | 1 |
| 1.07 | FIZB209 | Fizika | 270 | 9 | 2,3 |
| 1.08 | DINB205 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 3 |
| 1.09 | INFB105 | Informatika | 150 | 5 | 1 |
| 1.10 | GTPB104 | Geodeziya va topografiya asoslari | 120 | 4 | 2 |
| 1.11 | UGLB110 | Umumiy geologiya | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.12 | UGKB206 | Umumiy geokimyo | 180 | 6 | 3 |
| 1.13 | GFTB206 | Geofizikaviy tadqiqot usullari | 180 | 6 | 4 |
| 1.14 | PLNB205 | Paleontologiya va stratigrafiya asoslari | 150 | 5 | 3 |
| 1.15 | SGLB211 | Strukturaviy geologiya | 330 | 11 | 3,4 |
| 1.16 | MVKB204 | Mineralogiya va kristallografiya | 120 | 4 | 4 |
| 1.17 | GATB305 | Geoaxborot texnologiyalari | 150 | 5 | 6 |
| 1.18 | FQGB305 | Foydali qazilma konlari geologiyasi | 150 | 5 | 6 |
| 1.19 | GTAB405 | Geotektonika | 150 | 5 | 7 |
| 1.20 | GMGB306 | Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi asoslari | 180 | 6 | 5 |
| 1.21 | MINGB406 | Mintaqaviy geologiya | 180 | 6 | 7 |
| 1.22 | PETB306 | Petrografiya | 180 | 6 | 5 |
| 1.23 | LITB306 | Litologiya | 180 | 6 | 5 |
| 1.24 | TGLB305 | Tarixiy geologiya | 150 | 5 | 6 |
| 1.25 | FQRB405 | Foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish | 180 | 6 | 7 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 1530 | 51 | |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlar</i> | 1530 | 51 | 4,5,6,7,8 |
| | | Jami | 6150 | 205 | |
| | BBAB121 | Malakaviy amaliyot | 600 | 20 | 2,4,6,8 |
| | YDAB415 | Yakuniy davlat attestatsiyasi | 450 | 15 | 8 |
| | | Jami | 1050 | 35 | |
| | | HAMMASI | 7200 | 240 | |

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, geologiya, geofizika, neft va gaz geologiyasi, neft va gaz geofizikasi, mineralogiya, mineral, geokimyo, petrografiya, tog' jinsi, magmatizm, cho'kindi jinslar, metamorfizm, dinamometamorfizm, psevdomorfoza, metasomatit, migmatizatsiya, avtometamorfizm, granitizatsiya, stress bosim, flyuid, litostatik bosim, diaftorez, progressiv metamorfizm, polimetamorfizm, termal, kontakt, mintaqaviy metamorfizm, fatsiya, epizona, mezozona, katazona, yashil slanetslar, gneys, eklogit, okeanik yer po'sti, litogeniz, magma, lava, muzliklar, litosfera, gidrosfera, atmosfera, landshaft, gorizontalk struktura, vertikal struktura, kristall va amorf moddalar, atomlar, molekulalar, ionlar, polimorfizm, izomorfizm, kristallarning ko'rinishi, intruziv va effuziv magmatizm, aksessorlar, mos va nomos intruziyalar, batolit, lakkolit, garpolit, etmolit, dayka, shtok, sill, lopolit, fakolit, serogen struktura, bo'lakli jinslar, kimyoviy va organik cho'kindilar, psefit, psammit, alevrit, alevrolit, lyoss, pelit, geyzerlar, kaustobiolit, kon, foydali qzilma, geologiya qidiruv ishlari, geologik tadqiqotlar, neft va gaz konlarining geologik tadqiqotlari, neft va gaz konlarining geofizik tadqiqotlari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:



M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti



“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ

“Regional geologiya” DUK



Geologiya fanlari universiteti
60530500 – Geologiya (faoliyat soxasi bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha
malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiqaruvchilar, turdosh oliy ta'lim
muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“ ___ ” _____ **2023 yil**

Biz quyida imzo chekuvchilar – Geologiya fanlari universiteti rektori M.U.Isoqov, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ direktori Sh.P.Alimov va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti rektori I.U.Majidov bilan birgalikda Geologiya fanlari universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriatura ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

1. 60530500 – Geologiya (faoliyat sohasi bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-sonli farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-sonli qarori, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-sonli qarori, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli, 2020 yil 8 iyundagi “Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4740-sonli qarori, 2022 yil 3 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimidagi geologiya fanlari universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-154-sonli qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Geologiya fanlari universiteti rektori

M.U.Isoqov

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ direktori

Sh.P.Alimov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti

I.U.Majidov